

UDC (UO‘K, УДК): 821.111.09-31

EMILI BRONTE IJODIDA PSIXOLOGIK DRAMATIZM VA SHAXSLARARO ZIDDIYATLAR TALQINI²²

Rashidova Feruza Rasulovna

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,

Namangan davlat universiteti, dotsent

O‘zbekiston, Namangan

Email: feruza.rashidova.uz@gmail.com

Orcid ID: 0009-0008-7579-8658

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Emili Brontening “Momaqaldiroqli dovon” romanidagi psixologik drammatizm fenomeni estetik, semantik va kontekstual mezonlar asosida kompleks tahlil qilinadi. Asarda asosiy urg‘u Ketu va Xitkliff obrazlari orqali namoyon bo‘ladigan ichki ruhiy ziddiyatlar, insoniylik va hirs o‘rtasidagi ontologik qarama-qarshilik, shaxsiy ehtiroslar va ijtimoiy me‘yorlar to‘qnashuvi kabi masalalarning badiiy talqiniga qaratilgan. Muallif tabiat tasvirlari bilan obrazlar ruhiy holatlari o‘rtasidagi semantik uyg‘unlikni tahlil etar ekan, ushbu bog‘liqlik Bronte psixologizmining emotsional chuqurligini kuchaytiruvchi vosita sifatida talqin etiladi. Shuningdek, gotik poetika – qorong‘u makonlar, arvoqlar, sirlil atmosferalar – psixologik drammatizmni vizual va simvolik jihatdan boyituvchi elementlar sifatida ochib beriladi. Tadqiqotda Bronte uslubi Sharlotta Bronte, Jorj Eliot va Anton Chexov ijodi bilan qiyosiy tahlil qilinib, uning Viktoriya davri adabiyotida inson psixikasining chuqur va nazoratsiz qatlamlarini ifodalashda innovatsion yondashuv namoyon etgani ilmiy asoslanadi. Roman badiiy-psixologik tafakkurning yuqori bosqichi sifatida talqin qilinadi.

KALIT SO‘ZLAR

Psixologik drammatizm, Emili Bronte, “Momaqaldiroqli dovon”, ichki ziddiyat, gotik poetika, tabiat-ruhiyat bog‘liqligi, Viktoriya davri, qiyosiy tahlil.

Received: June 1, 2025

Accepted: July 18, 2025

Available online: September 3, 2025

²²**For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Rashidova F. Emili Bronte ijodida psixologik drammatizm va shaxslararo ziddiyatlar talqini. // Komparativistika (Comparative Studies). – 2025. – Vol.2, № 3(7) – B. 320-335.

PSYCHOLOGICAL DRAMATISM AND INTERPERSONAL CONFLICT IN EMILY BRONTË'S FICTION

Feruz Rashidovna Rashidova

PhD in Philology, Associate Professor,

Namangan State University

Uzbekistan, Namangan

Email: feruza.rashidova.uz@gmail.com

Orcid ID: 0009-0008-7579-8658

ABSTRACT

This article presents a comprehensive analysis of the phenomenon of psychological dramatism in Emily Brontë's novel *Wuthering Heights*, through aesthetic, semantic, and contextual frameworks. Particular attention is given to the inner conflicts embodied by the characters of Cathy and Heathcliff, focusing on the ontological tension between humanity and animal instinct, and the clash between individual desires and social norms. The author explores the symbolic interplay between nature and characters' psychological states, identifying it as a tool that amplifies emotional depth within Brontë's psychologism. Furthermore, Gothic poetics—such as dark spaces, ghosts, and a mysterious atmosphere—are interpreted as visual and symbolic extensions of psychological dramatism. Brontë's stylistic approach is comparatively analyzed alongside the works of Charlotte Brontë, George Eliot, and Anton Chekhov, demonstrating her innovative contribution to Victorian literature's portrayal of the unconscious and the instinctive layers of the human psyche. The novel is ultimately interpreted as a milestone in the development of literary-psychological thinking.

KEY WORDS

Psychological dramatism, Emily Brontë, *Wuthering Heights*, inner conflict, Gothic poetics, nature-psyche connection, Victorian literature, comparative analysis

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ДРАМАТИЗМ И МЕЖЛИЧНОСТНЫЕ КОНФЛИКТЫ В ТВОРЧЕСТВЕ ЭМИЛИ БРОНТЕ

Рашидова Феруза Расуловна

*доктор философии по филологическим наукам,
доцент,*

*Наманганский государственный университет
Узбекистан, Наманган*

Email: feruza.rashidova.uz@gmail.com

Orcid ID: 0009-0008-7579-8658

АННОТАЦИЯ

В статье представлен комплексный анализ феномена психологического драматизма в романе Эмили Бронте «Грозовой перевал», осуществленный на основе эстетических, семантических и контекстуальных критериев. Основное внимание уделено внутренним конфликтам, воплощённым в образах Кэтти и Хитклиффа, включая онтологическое противостояние между человечностью и животными инстинктами, а также столкновение личных желаний с социальными нормами. Анализируется символическая связь между природными пейзажами и психоэмоциональными состояниями персонажей, которая усиливает эмоциональную глубину бронтевского психологизма. Кроме того, элементы готической поэтики – тёмные пространства, призраки, мистическая атмосфера – рассматриваются как визуально-символические средства усиления психологической напряжённости. Анализ стиля Эмили Бронте в сравнении с творчеством Шарлотты Бронте, Джордж Элиот и А.П. Чехова позволяет обосновать новаторство её подхода к изображению бессознательных и инстинктивных уровней человеческой психики в литературе викторианской эпохи. Роман Эмили Бронте «Грозовой перевал» интерпретируется как важнейший этап в развитии художественно-психологического мышления.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Психологический драматизм, Эмили Бронте, «Грозовой перевал», внутренний конфликт, готическая поэтика, связь природы и психики, викторианская литература, сравнительный анализ

KIRISH

Viktoriya davri adabiyoti psixologik tasvirning rivojlanishida muhim bosqich bo'lib, ayol yozuvchilar bu jarayonda o'ziga xos rol o'ynagan. Emili Bronte (1818–1848) o'zining “Momaqaldirqli dovon” (1847) romani bilan psixologizmning dramatik shaklini yaratdi, unda qahramonlarning ichki dunyosi murakkab ziddiyatlar va emotsional chuqur hissiyot orqali ochiladi. Ushbu roman gotik an'analarni psixologik realizm bilan uyg'unlashtirib, inson ruhiyatining tuban va yuksak qirralarini tasvirleydi. Tadqiqotning maqsadi “Momaqaldirqli dovon”dagi psixologik dramatismni o'rganish, xususan, Ketil va Xitkliff obrazlaridagi ichki notinchlik, tabiat va ruhiyat o'rtasidagi aloqa hamda gotik elementlarning psixologik tasvirga ta'sirini aniqlashdan iborat. Ushbu maqola Bronte psixologizmni shaxslararo munosabatlardagi hayvoniylik va insoniylik ziddiyati sifatida talqin qilganligini isbotlashga urinadi, bu esa Viktoriya davri psixologizmining yangi talqinini taklif qiladi.

ASOSIY QISM

Tadqiqotning maqsadi “Momaqaldirqli dovon”dagi psixologik dramatismni o'rganish, xususan, Ketil va Xitkliff obrazlaridagi ichki notinchlik, tabiat va ruhiyat o'rtasidagi aloqa hamda gotik elementlarning psixologik tasvirga ta'sirini aniqlashdan iborat. Ushbu maqola Bronte psixologizmni shaxslararo munosabatlardagi hayvoniylik va insoniylik ziddiyati sifatida talqin qilganligini isbotlashga urinadi, bu esa Viktoriya davri psixologizmining yangi talqinini taklif qiladi.

Tadqiqotda ko'rilishi kutilayotgan masalalar quyidagilardan iborat:

1. Ketil va Xitkliffning ichki notinchligi qanday psixologik ziddiyatlarni aks ettiradi?
2. Tabiat tasvirlari qahramonlarning ruhiy holatlariga qanday ta'sir qiladi?
3. Gotik elementlar dramatik psixologizmni qanday boyitadi?

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot asosan, qiyosiy-tahliliy va psixologik yondashuvlarga asoslanadi.

Asosiy metodlar quyidagilardan iborat.

1. Matn tahlili: “Momaqaldirimli dovon” romanidagi Ketli va Xitkliff obrazlari, ularning dialoglari, ichki monologlari va harakatlari psixologik nuqtayi nazardan o‘rganiladi.

2. Kontekstual tahlil: Tabiat tasvirlari va gotik elementlarning qahramonlar ruhiyatiga ta’siri Viktoriya davri adabiy an’analari doirasida ko‘rib chiqiladi.

3. Qiyosiy yondashuv: Bronte psixologizmi opasi Sharlotta Brontening asar qahramonlari ruhiyati bilan solishtirildi.

Tadqiqot obyekti sifatida Emili Bronte asari, shuningdek, tadqiqotda qo‘llanilgan psixologik tahlil- psixologizm nafaqat individual kechinmalarni, balki madaniy kontekstda insoniy holatlarni ifodalovchi estetik fenomen sifatida ham ko‘riladi. Bryushinkin (1998) ta’kidlaganidek, *“Психологизм становится метаязыком культуры, способом выражения предельных смыслов и экзистенциальных состояний”* (Bryushinkin, 1998, 14), ya’ni psixologizm madaniyatning meta tili darajasiga ko‘tariladi.

Shuning bilan bir qatorda, psixologizm tushunchasiga falsafiy yondashuvda uni bilish jarayonini, mantiq va tafakkurni individual ruhiy holatlar orqali izohlovchi metod sifatida ko‘rish mumkin. “Философский энциклопедический словарь”da ta’kidlanishicha, psixologizm — bu “bilim, mantiqiy qonunlar va fikrlash strukturalarini psixologik holatlarning ifodasi yoki natijasi sifatida talqin qilishga asoslangan yondashuv”dir (Kuznetsov, 2007, pp. 458–460). Ushbu yondashuvda inson tafakkuri nafaqat mantiqiy tartibda, balki individual hissiyot va onglilik orqali ham shakllanishi mumkinligi e’tirof etiladi. Bu, ayniqsa, adabiy matn tahlilida qahramonlar ichki ruhiy kurashini anglashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Yana bir tadqiqotchi badiiy psixologizmga quyidagicha ta’rif beradi. G.V.Sorina psixologizm va antipsixologizmni nafaqat badiiy-estetik hodisa, balki madaniy tafakkurning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi ustuvor tamoyil sifatida talqin qiladi. Unga ko‘ra, psixologizm insonning ichki kechinmalari va ongi orqali o‘zini va atrofdagi dunyoni anglashga bo‘lgan intilishning madaniy ko‘rinishidir.

Sorina ta'kidlashicha: *“Психологизм — это не просто метод художественного изображения внутреннего мира, а культурная доминанта, способ мышления, формирующий отношения человека к себе и к миру”* (Sorina, 1993, 27). Ya'ni, psixologizm – bu insonning o'ziga va olamga nisbatan munosabatini shakllantiruvchi tafakkur usuli bo'lib, madaniyatda ustuvor tamoyil vazifasini bajaradi. Ayniqsa, XIX asr adabiyotida bu tamoyil ijtimoiy, axloqiy va ekzistensial qirralar orqali ifodalangan.

Tadqiqot natijalari. Roman matni va uning psixologik chuqurligini tahlil qilish asosida quyidagi natijalar matn tahlili, kontekstual tahlil, qiyosiy tahlil va nazariy asoslash usullari qo'llanilgan holda “Momaqaldirimli dovon” bosh qahramonlari Ketni va Xitkliff obrazlaridagi ichki notinchlik va isyonkorlik asarda psixologik ziddiyatni keltirib chiqishidagi asosiy omil sanaladi deb hisoblaymiz.

O'tkazgan tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, Ketni Ernshou va Xitkliff obrazlari romanning psixologik drammatizmining markazida turadi. Ularning ichki dunyosi sevgi va nafrat, erkinlik va ijtimoiy qaramlik, shaxsiy istaklar va tashqi bosimlar kabi chuqur ziddiyatlar bilan belgilangan. Ushbu ichki notinchlik va isyonkorlik qahramonlarning psixologik portretlarini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi va o'quvchiga inson tabiatining murakkabligini yaqinlashtiradi.

Tahlilga tortadigan bo'lsak, Ketni Ernshouning ichki ziddiyatlari uning ijtimoiy kutishlar va shaxsiy his-tuyg'ular o'rtasidagi tanlovida yaqqol namoyon bo'ladi. Uning Edgar Lintonga uylanish qarori ijtimoiy maqom va barqarorlikka intilishdan kelib chiqadi, lekin bu tanlov Xitkliffga bo'lgan chuqur, deyarli metafizik sevgisi bilan to'qnashadi. Romanda Ketni o'zining ichki dunyosini ochib beruvchi muhim iborani aytadi: “Men Xitkliffman, u esa har doim mening ongimda” (Bronte, 2003, 82). Bu so'zlar Ketining Xitkliff bilan ruhiy birligini va uning identifikatsiyasining bu bog'liqlikka asoslanganligini ko'rsatadi. Biroq, Viktoriya davrining ijtimoiy me'yorlari uni Lintonga turmushga chiqishga majbur qiladi, bu esa uning ichki erkinligi va shaxsiy tanlovlari o'rtasidagi chuqur ikkilanishni keltirib chiqaradi. Ushbu ziddiyat Ketining psixologik portretini shakllantirib, uni o'z istaklari va majburiyatlari o'rtasida qolib ketgan tragik qahramonga aylantiradi.

Shuningdek, Xitklifning ichki dunyosi esa yanada qorong‘u va xaotik (chalkash) ziddiyatlar bilan to‘ldirilgan. Uning Ketiga bo‘lgan sevgisi va uni yo‘qotganidan keyin paydo bo‘lgan qasos olish istagi uning hayvoniylik darajasidagi instinktlarini ochib beradi. Xitklifning xatti-harakatlari – masalan, Ketining o‘limidan keyin uning qabrini ochib, jasadi bilan birga yotishni orzu qilishi – uning insoniylik va yovvoyi tabiat o‘rtasidagi chegarani yo‘qotganligini ko‘rsatadi: “Men uning yonida yotishni xohlayman, hatto o‘limda ham” (Bronte, 2003, 289). Bu epizod Xitklifning isyonkorligini va uning ijtimoiy me‘yorlarga qarshi chiqishini ta’kidlaydi. Uning qasos olish istagi nafaqat shaxsiy adovatdan kelib chiqadi, balki sinfiy adolatsizlikka qarshi ichki norozilik sifatida ham talqin qilinishi mumkin, bu esa Viktoriya davri adabiyotidagi ijtimoiy-psixologik tasvirlar bilan bog‘lanadi.

Ushbu ziddiyatlar psixologik dramatismni boyitib, qahramonlarning ichki kurashini o‘quvchiga hissiy jihatdan yaqinlashtiradi. E.Brontening ushbu yondashuvi an’anaviy romantik qahramon tasvirlaridan farq qilib, inson tabiatining nozik va xavfli qirralarini ochib beradi. Masalan, Xitklifning hayvoniyligi Shekspirning “Otello”sidagi Yagoning shafqatsizligi bilan qiyoslanishi mumkin, ammo Bronte bu instinktlarni psixologik chuqurlik bilan birlashtirib, Xitklifni yanada murakkab qahramonga aylantiradi.

Keti va Xitklifning ichki notinchlik va isyonkorligi romanning psixologik dramatismning asosiy manbai sifatida xizmat qiladi. Ushbu natija Brontening inson tabiatidagi ziddiyatlarni tasvirlashdagi o‘ziga xos uslubini ko‘rsatib, uning psixologizmining Viktoriya davri adabiyotidagi yangi bosqich ekanligini tasdiqlaydi.

Asarda yana kuzatilishi mumkin bo‘lgan tasvir bu - tabiat va ruhiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikdir. Roman tabiat tasvirlarini qahramonlarning ruhiy holatlari bilan organik ravishda bog‘laydi. “Wuthering Heights” ya’ni, “Momaqaldiroqli dovon” kabi makonlar, shuningdek, bo‘ron va shamol kabi tabiiy elementlar nafaqat voqealar fonini yaratadi, balki qahramonlarning ichki dunyosining ramziy ko‘zgusi sifatida ham ishlaydi. Ushbu bog‘liqlik Bronte psixologizmining o‘ziga xos xususiyatini ta’kidlaydi.

Bundan tashqari, tahlillar shuni ko'rsatadiki, "Momaqaldirimli dovon"ning qo'pol, bo'ronli tepaliklari Xitkliffning yovvoyi va nazoratsiz xarakterini aks ettiradi. Roman boshida janob Lokvud uyni quyidagicha tasvirlaydi: *"Bu yerda havo har doim shamolli, uyning devorlari qalin va derazalari kichik"* (Bronte, 2003, 3). Ushbu tasvir Xitkliffning ichki kaosini va uning tashqi dunyodan yopilgan ruhiy holatini ramziy ifodalaydi. Boshqa tomondan, "Thrushcross Grange" sokin va tartibli muhitga ega bo'lib, Ketining ijtimoiy intilishlari va tinchlikka erishish istagini aks ettiradi. Romanda Ketni o'zining bu muhitdagi holatini *"qush qafasda o'tirgandek"* deb ta'riflaydi (Bronte, 2003, 121), bu uning ijtimoiy cheklovlar ichida o'zini qamalgan his qilishini ko'rsatadi. Ushbu ikki makon qahramonlarning xarakterlarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yib, ularning ichki ziddiyatlarini yanada aniqlashtiradi.

Tabiiy elementlar, xususan bo'ron va shamol, qahramonlarning emotsional to'qnashuvlari bilan sinxronlashadi. Masalan, Ketining o'limidan oldingi sahnada tabiatning holati uning ichki iztiroblarini tasvirlaydi: *"Shamol uyning atrofida uvillab, derazalarni silkitardi"* (Bronte, 2003, 167) Bu tasvir Ketining ruhiy notinchligini va hayotining so'nggi daqiqalaridagi emotsional cho'qqisini ramziy tarzda kuchaytiradi. Bronte tabiatni faqat dekorativ element sifatida emas, balki psixologik holatlarni ochib beruvchi vosita sifatida ishlatadi, bu esa uning uslubini Uodsuorz (Wordsworth) kabi romantik shoirlarning tabiat tasvirlaridan farqlantiradi. qahramonlarning ichki kurashining dramatik ifodasi sifatida taqdim etadi.

Kontekstual nuqtai nazardan, Viktoriya davri adabiyotidagi tabiat tasvirlari ko'pincha didaktik yoki estetik maqsadlarga xizmat qilgan. Bronte esa bu an'anadan chetga chiqib, tabiatni psixologik drammatizmning ajralmas qismiga aylantiradi. Bu yondashuv Freydning keyingi davrdagi psixoanalitik nazariyalari bilan ham qiyoslanishi mumkin, chunki tabiat qahramonlarning ongsiz istaklari va his-tuyg'ularining tashqi proyeksiyasi sifatida talqin qilinadi.

Shunday qilib, tabiat va ruhiyat o'rtasidagi bog'liqlik Bronte psixologizmining innovatsion jihatlaridan biri bo'lib, qahramonlarning ichki

dunyasini ramziy va hissiy jihatdan boyitadi. Ushbu natija romaning psixologik chuqurligini ochib beradi va tabiatning tasviriy vosita sifatidagi rolga urgʻu beradi.

E.Bronte asarida kuzatish mumkin boʻlgan yana bir jihatlardan biri bu-dramatik psixologizmning gotik elementlar bilan uygʻunligi hisoblanadi.

Jumladan, gotik elementlar – qorongʻu uylar, arvoq tasvirlari va sirli muhit – romanning psixologik drammatizmini boyitib, qahramonlarning ichki iztiroblarini vizual va emotsional jihatdan kuchaytiradi. Ushbu unsurlar Bronte psixologizmini romantik va gotik anʼanalalar bilan uygʻunlashtirib, uning oʻziga xos uslubini shakllantiradi.

Tahlillarga kelsak, Ketining arvohi tasviri gotik elementlarning psixologik drammatizmga taʼsirini koʻrsatuvchi eng muhim misollardan biridir. Xitklif Ketining oʻlimidan soʻng uning arvohini koʻrishi uning ichki azoblarini va oʻtmish bilan bogʻliq travmalarini ochib beradi: *“Men uni koʻrdim, u mening oldimda edi”* (Bronte, 2003, 289). Bu epizod Xitkliffning Ketiga boʻlgan cheksiz sevgisi va uni yoʻqotishdan kelib chiqqan ruhiy buzilishini vizual tasvirga aylantiradi. Gotik unsurlar bu yerda Xitkliffning ongsiz ongini aks ettiruvchi ramziy vosita sifatida ishlaydi, bu esa Freydning travma va repressiya haqidagi nazariyalari bilan qisman bogʻlanishi mumkin.

Shuningdek, “Momaqaldiroqli dovon” uyi oʻzining qorongʻu va sirli muhiti bilan gotik anʼanalarga xos xususiyatlarni oʻzida mujassam etadi. Uyning devorlari ichida sodir boʻlayotgan voqealar – Xitklifning qasos rejaları va Ernshou oilasiga qarshi shafqatsiz munosabati – psixologik drammatizmni yanada chuqurlashtiradi. Uyning oʻzi qahramonlarning ichki qalblarini aks ettiruvchi ramziy makon sifatida talqin qilinadi, bu esa En Radklif kabi gotik yozuvchilarning usullariga oʻxshaydi. Biroq, Bronte bu elementlarni psixologik tasvir bilan birlashtirib, gotik unsurlarni nafaqat qoʻrqinchli effekt uchun, balki qahramonlarning ruhiy holatini chuqurroq ochish uchun ishlatadi.

Yuqoridagilarga qoʻshimcha qilib shuni aytish mumkinki, gotik elementlar dramatik effektini kuchaytirib, oʻquvchida qoʻrquv va hayajon hissini uygʻotadi. Masalan, Ketining arvohi tasviri Xitkliffning ichki iztiroblarini ochib berish bilan

birga, romanning emotsional ta'sirini oshiradi. Bu yondashuv romantik adabiyotdagi ideallashtirilgan tasvirlardan farq qilib, psixologik realizm bilan gotik an'analarni muvozanatlashtiradi.

Boshqa jihatdan esa, gotik elementlar psixologik dramatismni boyitib, qahramonlarning ichki dunyosini yanada chuqurroq ochib beradi. Ushbu natija Brontening psixologik tasvirdagi innovatsion uslubini ko'rsatib, uning gotik va romantik an'analarni o'ziga xos tarzda birlashtirganligini tasdiqlaydi.

Ushbu natijalar qismi "Momaqaldiroqli dovon" romanidagi psixologik dramatismning uchta asosiy jihatini – ichki ziddiyatlar, tabiat-ruhiyat bog'liqligi va gotik elementlarning rolini – ilmiy asosda tahlil qiladi. Matn tahlili, kontekstual va qiyosiy yondashuvlar, shuningdek, nazariy asoslash orqali natijalar mukammallashtirilib, Bronte psixologizmining Viktoriya davri adabiyotidagi o'ziga xos o'rni aniqlandi. Ushbu natijalar romanning badiiy psixologik xususiyatlarini hamda uning o'quvchiga ta'sirini yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari Emili Bronte psixologizmni shaxslararo munosabatlardagi hayvoniylik va insoniylik ziddiyati sifatida talqin qilganini tasdiqlaydi. Ushbu yondashuv Bronte ijodini Viktoriya davri adabiyotidagi o'ziga xos va innovatsion hodisa sifatida ajratib turadi. Ushbu muhokama qismida natijalar chuqurroq tahlil qilinadi, Bronte psixologizmi boshqa mualliflarning uslublari bilan solishtiriladi, uning gotik an'analar bilan aloqasi va ilmiy yangiligi ta'kidlanadi.

Emili Bronte "Momaqaldiroqli dovon" romanida Ketni va Xitklif obrazlari orqali hayvoniylik va insoniylik o'rtasidagi ziddiyatni markaziy mavzu sifatida ko'taradi. Ketni va Xitklifning ichki notinchligi ularning instinktiv istaklari – sevgi, ehtiros, qasos olish – bilan ijtimoiy-axloqiy cheklovlar – Ketni uchun ijtimoiy maqomga mos nikoh, Xitklif uchun sinfiy adovat – o'rtasidagi keskin kurashda namoyon bo'ladi. Masalan, Ketning Xitklifga bo'lgan muhabbati bilan Edgar Lintonga turmushga chiqish qarori o'rtasidagi ikkilanish uning shaxsiy erkinligi va ijtimoiy majburiyatlari o'rtasidagi psixologik to'qnashuvni ochib beradi. Xitklifning qasos olishga bo'lgan intilishi esa uning insoniylikdan voz kechib, hayvoniylik

darajasiga tushishini ko'rsatadi, bu jamiyatdan chetlanish va ichki iztiroblarning natijasidir.

Ushbu ziddiyat Bronte psixologizmini opasi Sharlotta Brontening "Villette" (Shaharcha) romanidagi psixologik tasvirlardan farqlantiradi. Bunga asardan keltirilgan parcha bilan dalillashimiz mumkin. *"I would not, if I could, have the love of a multitude. It is too easy, too hollow, too unsatisfying."* Tarjimasi: *"Men ko'pchilikning sevgisiga ega bo'lishni istamasdim — hatto bunga qodir bo'lsam ham. Bu juda oson, juda bo'sh, juda qoniqarsiz."* (Bronte, 2004, 233, 281). Bu satrlar Lyusining insoniy tanlov, o'ziga xoslik, va ijtimoiy kutishlardan voz kechish orqasidagi og'riqli, ammo qat'iy pozitsiyasini ko'rsatadi. U Brontelar uslubidagi axloqiy-introspektiv psixologizmning yorqin namunasi hisoblanadi. Bundan tashqari, "Villette"da Lyusi Snouning ichki kurashi ko'proq shaxsiy mustaqillik, diniy introspeksiya va Viktoriya davri ayollariga qo'yilgan ijtimoiy cheklovlar atrofida kechadi. Lyusining psixologik portreti axloqiy tanlovlar va o'z-o'zini anglashga urg'u bersa-da, Emili Brontedagidek hayvoniylik va instinktiv istaklarning shiddatli ifodasi mavjud emas.

Shu bilan birga, Jorj Eliotning "Midlmarsh" romanidagi axloqiy psixologizm bilan solishtirganda, Bronte uslubi emotsiyalar va yovvoyi instinktlarga ko'proq asoslanadi. Bunga quyida asardan keltirilgan parcha fikrimizni dalillashu mumkin. *"If we had a keen vision and feeling of all ordinary human life, it would be like hearing the grass grow and the squirrel's heart beat, and we should die of that roar which lies on the other side of silence."* Tarjimasi: *"Agar biz har bir oddiy inson hayotini teran ko'ra bilganimizda edi, bu biz uchun o'simlikning o'sishini, yoki kaltakesak yuragining urishini eshitgandek bo'lardi. Va biz sukutning narigi tomonidagi o'sha qichqiriq ichida halok bo'lardik."* (Eliot, 1994, 194). Ushbu parcha tahlili quyidagicha: insonning kundalik, tashqi ko'rinishda oddiy bo'lib tuyulgan hayoti ortida qanday chuqur ichki sezgilar va axloqiy iztiroblar yashiringanini ko'rsatadi. Eliot insoniy hissiyotlar va axloqiy mas'uliyatni ehtiyotkorlik bilan tahlil qiladi. Bu esa Bronte uslubidagi yovvoyi instinktlar asosidagi drammatizmdan farq qiladi — Eliotda ichki kurashlar axloqiy aniqlik,

empatiya va ijtimoiy burch atrofida kechadi. Eliot qahramonlarining ichki kurashi ijtimoiy va axloqiy majburiyatlar doirasida kechsa, Bronte bu chegaralarni buzib, inson tabiatining nazoratsiz va chuqur qirralarini o'rganadi.

Bronte psixologizmining hayvoniylik va insoniylik ziddiyatiga asoslanishi uni Viktoriya davri adabiyotidagi an'anaviy psixologik tasvirlardan ajratib turadi. Bu yondashuv Bronte ijodini psixologik adabiyotning rivojlanishida muhim bosqich sifatida belgilaydi va uning uslubini kashfiyotchi sifatida ta'kidlaydi.

Bronte psixologizmining estetik o'ziga xosligi tabiat tasvirlari va qahramonlarning ruhiy holatlari o'rtasidagi chambarchas aloqada namoyon bo'ladi. "Wuthering Heights" (Momaqaldirimli dovon)da bo'ronli tepaliklar Xitklifning ichki xaosini ramziy ifodalasa, sokin vodiylar Ketining ijtimoiy hayotga intilishini aks ettiradi. Bu uslub rus adabiyotidagi Anton Chexovning psixologizmi bilan qisman o'xshashlikka ega, chunki Chexov ham muhit tasvirlarini qahramonlarning ichki dunyosini ochish uchun ishlatadi, masalan, "Uch opa-singil" dramasi bilan ilingan quyidagi parcha: *Маша (тихо). Зачем я вышла замуж? Зачем?.. Я ведь люблю, люблю... люблю этого человека...* Tarjimai: *Masha (past ovozda). Nega men turmushga chiqdim? Nega? Axir men sevaman, sevaman... uni sevaman...* (Chekhov, 2004, 27). Ushbu parcha Chexovning ichki ziddiyat, kechikkan pushaymon, va hissiy konflikt kuchli ifoda etishni maqsad qilganini bilishimiz mumkin bo'ladi. Masha sevgisi va turmushidagi bo'shliq o'rtasida eziladi. Chexov qahramon ruhiyatidagi chuqur iztirobni juda qisqa, ammo kuchli so'zlar bilan tasvirlaydi — bu psixologik tasvirning yorqin namunasi hisoblanadi. Biroq, Chexovning lirik va sokin uslubidan farqli o'laroq, Bronte tabiatni dramatik va gotik effektlar bilan birlashtirib, qahramonlarning emotsional jo'shqinliklari bilan uyg'unlashtiradi.

Viktoriya davri adabiyotida tabiat tasvirlari ko'pincha romantik ideallarni ifodalash yoki didaktik maqsadlarda qo'llanilgan. Bronte esa bu an'anadan chetga chiqib, tabiatni psixologik drammatizmning ajralmas qismiga aylantiradi. Bu yondashuv keyinchalik Freydning psixoanalitik nazariyalari bilan ham qisman bog'lanishi mumkin, chunki tabiat qahramonlarning ongsiz istaklari va his-

tuyg'ularining tashqi proyeksiyasi sifatida talqin qilinadi. Masalan, Xitklifning ichki g'azabi va yolg'izligi bo'ronli shamollar va qorong'u tepaliklar orqali tasvirlanadi, bu uning ruhiy holatining vizual uzatilishi sifatida xizmat qiladi.

Tabiat va ruhiyat o'rtasidagi bog'liqlik Bronte psixologizmining o'ziga xos xususiyati bo'lib, uning uslubini boshqa yozuvchilardan ajratib turadi. Bu yondashuv romaning estetik va psixologik chuqurligini yanada boyitadi va Bronte ijodining innovatsionligini ta'kidlaydi.

Gotik elementlar – qorong'u uylar, arvoq tasvirlari va sirli muhit – Bronte psixologizmini boyitib, qahramonlarning ichki iztiroblarini vizual va emotsional jihatdan kuchaytiradi. Masalan, Ketining arvohi tasviri Xitklifning o'tmishdagi ruhiy travmalari va ichki azoblarini ochib beradi, bu gotik unsurlarning psixologik drammatizmga birlashganini ko'rsatadi. Ushbu uslub Bronte ijodini Viktoriya davri ayol yozuvchilari orasida ajralib turishiga asosiy sabab bo'lgan, chunki gotik elementlar nafaqat muhit yaratish uchun, balki qahramonlarning ruhiy holatini chuqurlashtirish uchun ishlatiladi.

Bronte uslubi klassik gotik yozuvchilar, masalan, Ann Radklif ("Udolfo sirlari") yoki Horas Uolpol bilan qiyoslaganda, o'xshashlik va farqlarga ega. Radklifning asarlarida gotik unsurlar qo'rqinchli ta'sir va sirli muhit yaratishga xizmat qilsa, Bronte bu elementlarni qahramonlarning ichki dunyosini ochish vositasiga aylantiradi. Bu yondashuv Bronte psixologizmini gotik adabiyotning psixologik yo'nalishdagi rivojlanishi sifatida talqin qilish imkonini beradi va uning uslubini an'anaviy gotik romandan ustun qo'yadi.

Gotik elementlarning psixologik tasvirda tutashuvi Bronte uslubining o'ziga xosligini ta'kidlaydi va uning ijodini Viktoriya davri adabiyotidagi innovatsion hodisa sifatida ajratib ko'rsatadi. Bu yondashuv psixologik adabiyotning rivojlanishida yangi imkoniyatlar ochadi.

Tadqiqot Bronte psixologizmini hayvoniylik va insoniylik ziddiyati sifatida talqin qilganini isbotlaydi, bu uning dramatik psixologizmini gotik an'analardan kelib chiqqan holda yangi nuqtai nazardan ochib beradi. Bu yondashuv Viktoriya davri psixologizmining an'anaviy talqinlaridan – masalan, ijtimoiy realizm (Jorj

Eliot) yoki axloqiy introspeksiya (Sharlotta Bronte) – keskin farq qiladi. Ko‘pgina Viktoriya davri yozuvchilari psixologizmni ijtimoiy va axloqiy muammolar doirasida o‘rgangan bo‘lsa, Emili Bronte inson tabiatining chuqur, instinktiv va nazorat qilib bo‘lmas qirralarini tadqiq etadi. Bu esa uning ijodini psixologik adabiyotning kashfiyotchilaridan biriga aylantiradi.

Ushbu tadqiqot faqat “Momaqaldiroqli dovon” romaniga qaratilgan bo‘lib, Bronte she‘rlari yoki boshqa Viktoriya davri gotik asarlari bilan kengroq taqqoslash imkoniyati cheklangan. Kelgusidagi tadqiqotlarda Bronte psixologizmini Tomas Hardi (“Tess of the d’Urbervilles”) yoki Edgar Allan Po (“The Fall of the House of Usher”) kabi mualliflarning asarlari bilan solishtirish foydali bo‘lishi mumkin deb hisoblaymiz. Hardining asarlarida tabiat va inson taqdiri o‘rtasidagi bog‘liqlik, Po ning hikoyalarida esa gotik elementlar va psixologik iztiroblar mavjud bo‘lib, bu solishtirma tahlil Bronte uslubining o‘ziga xos jihatlarini yanada aniqroq belgilashga xizmat qilishi mumkin.

XULOSA

“Momaqaldiroqli dovon” romanidagi psixologik dramatism Emili Bronte ijodining o‘ziga xosligini va noyobligini yaqqol ko‘rsatadi. Keti Earnshou va Xitkliff obrazlaridagi murakkab ichki ziddiyatlar, tabiat tasvirlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ruhiy holatlar va gotik elementlarning psixologik tasvirga chuqur integratsiyasi Bronte psixologizmini shaxslararo munosabatlardagi hayvoniylik va insoniylik o‘rtasidagi abadiy kurash sifatida belgilaydi. Bu kurash qahramonlarning instinktiv istaklari bilan ijtimoiy-axloqiy cheklovlar o‘rtasidagi to‘qnashuvni nafaqat aks ettiradi, balki inson tabiatining chuqur va nozik qirralarini ham ochib beradi. Bronte ushbu ziddiyatlarni tasvirlashda nafaqat shaxsiy his-tuyg‘ularni, balki umuminsoniy psixologik holatlarni ham sinchkovlik bilan tadqiq etadi.

Brontening ushbu yondashuvi Viktoriya davri adabiyotidagi psixologizmning an’anaviy chegaralarini sezilarli darajada kengaytiradi. Agar o‘sha davrning an’anaviy psixologik tasvirlari asosan ijtimoiy realizm yoki axloqiy introspeksiya doirasida cheklangan bo‘lsa, Bronte inson ruhiyatining yovvoyi, nazoratsiz va

instinktiv tomonlarini tadqiq etish orqali yangi adabiy ufqlarni kashf qiladi. Uning uslubida tabiatning vahshiy kuchlari bilan qahramonlarning ichki olami o‘zaro uyg‘unlashib, psixologik dramatismni yanada kuchaytiradi. Bu esa Bronte ijodini psixologik dramatismning nafaqat muhim, balki innovatsion namunasi sifatida ajratib turadi. Bronte psixologizmni oddiy ichki dunyoni tasvirlash vositasidan ko‘ra, inson tabiatidagi abadiy ziddiyatlarni ochishning kuchli usuli sifatida qo‘llaydi.

Shunday qilib, “Momaqaldiroqli dovon” romanining psixologik chuqurligi va dramatik tasviri Emili Bronteni Viktoriya davri adabiyotidagi psixologizmning rivojlanishida muhim shaxs sifatida ko‘rsatadi. Uning uslubi o‘z davrining adabiy me‘yorlaridan chetga chiqib, keyingi davrlarning psixologik adabiyotiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa Bronte ijodining nafaqat o‘z zamonasida, balki adabiyot tarixida abadiy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bronte Sh. Villette / Sh. Bronte. – L.: Penguin Classics, 2004
2. Bronte E. Wuthering Heights/ E. Bronte. – L.: Penguin Classics, 2003. –
3. Bryushinkin V. N. XXI asr bo‘lag‘asida psixologizm // Muvaffaqiyatli Kantshunoslik – 4: Xalqaro seminar materiallari. – Kaliningrad, 1998.
4. Chexov A. P. Uch opa-singil/ A. P. Chexov. – M.: Eksmo, 2004.
5. Eliot G. Middlemarch / G. Eliot. – L.: Penguin Classics, 1994.
6. Falsafiy ensiklopedik lug‘at / tahr. V. G. Kuznetsov. – M.: INFRA-M, 2007. – B. 458–460.
7. Sorina G. V. Mantiqiy va madaniy dominantalar: Psixologizm va antipsixologizm tarixiy-nazariy yondashuvi bo‘yicha ocherklar/ G. V. Sorina. – M., 1993.

REFERENCES

1. Bronte, C. (2004). *Villette* (Original work published 1853). Penguin Classics.
2. Bronte, E. (2003). *Wuthering Heights* (Original work published 1847). Penguin Classics.
3. Bryushinkin, V. N. (1998). Психологизм на пороге XXI века. In *Логическая кантология, 4: Материалы международного семинара*. Калининград.
4. Chekhov, A. P. (2004). *Три сестры*. Москва: Эксмо.
5. Eliot, G. (1994). *Middlemarch* (Original work published 1871–1872). Penguin Classics.
6. Кузнецов, В. Г. (Ред.). (2007). *Философский энциклопедический словарь* (с. 458–460). Москва: ИНФРА-М.
7. Сорина, Г. В. (1993). *Логическая и культурная доминанта: Очерки по теории и истории психологизма и антипсихологизма в культуре*. Москва.